

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

MIRZAYEV SHUXRAT SHAVKATOVICH

**HUQUQNING HARAKATLANISHI: NAZARIYA VA AMALIYOT
MUAMMOLARI**

12.00.01 – Davlat va huquq nazariyasi va tarixi.
Huquqiy ta’limotlar tarixi

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.1.DSc/Yu274. raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (rus, o‘zbek, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va «ZiyoNET» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Odilqoriyev Xodjimurot Tuxtamurotovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor

Umarova Karligash Umarovna
yuridik fanlar doktori, professor

Gafurov Askar Boyisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament
tadqiqotlari instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 13-mart kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Doktorlik dissertatsiyasi bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1359-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 27-fevralda tarqatildi.

(2025-yil 27-fevraldagi 18-raqamli reyestr bayonnomasi).

R.R. Xakimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, yuridik fanlar doktori, professor

F.B. Maxmudov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa
doktori, dotsent

I.R. Bekov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik
fanlar doktori, professor

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda huquqning samarali harakatlanishi masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. BMTning “2030-yilgacha bo‘lgan barqaror rivojlanish maqsadlari”ning 16-maqsadida tinch va inklyuziv jamiyatlarni qurish, barcha uchun huquq ustuvorligini ta’minlash hamda samarali, hisobdor va inklyuziv institutlarni barcha darajalarda tashkil etish vazifasi qo‘yilgan¹. Jahon Bankining ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo aholisining 5,1 milliarddan ortig‘i huquqiy himoya vositalaridan foydalanishda jiddiy muammolarga duch kelmoqda². Butunjahon “Qonun ustuvorligi indeksi 2024” hisobotiga ko‘ra, dunyoning 140 davlatidan 78 tasida huquq ustuvorligi darajasi pasayish tendensiyasiga ega³. Shu bois ham ko‘plab mamlakatlar uchun huquqning ustuvorligi huquq harakatlanishining, uning tamoyillari va talablarining real hayotga tatbiq etilishi darajasining muhim ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Mazkur muhim institut orqali jamiyat hayotining ko‘plab masalalari hal qilinadi: inson huquqlari va erkinliklari himoya qilinadi, jamiyat va davlat boshqaruvi tashkil etilib, odil sudlov amalga oshiriladi.

Jahonda huquqning harakati natijadorligini oshirish va uning tartibga solish salohiyatini ro‘yobga chiqarish yo‘llarini aniqlashga qaratilgan ilmiy izlanishlarga e’tibor kuchaymoqda. Jumladan, zamonaviy huquqiy tizimlarda huquqning harakatlanish mexanizmlari, huquqning ijtimoiy ta’sirini baholash, globallashtirish sharoitida huquqiy tartibga solish samaradorligini oshirish, huquq mazmunining sifatini oshirish, huquqiy faoliyatni takomillashtirish, huquqni qo‘llash natijalarini o‘rganish, huquqdagi kamchiliklar va ixtiloflarni minimallashtirish, huquqning ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlari va vazifalariga muvofiqligini ta’minlash, uni yangilash va real voqelikka moslashtirish kabi masalalarga muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadigan tadqiqot yo‘nalishi sifatida alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda huquqning harakatlanishi, samarali ishlashi va sifatini oshirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning ijro etilishini ta’minlash bo‘yicha yangi mexanizmlar joriy etildi. Huquqiy siyosat strategiyasi, norma ijodkorligi va huquqni qo‘llash faoliyatini tashkil etishga bo‘lgan yondashuvlar tubdan qayta ko‘rib chiqildi. Xususan, qonunosti hujjatlarining sonini kamaytirish va qonunlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishini ta’minlash borasida muhim natijalarga erishildi. 2022-2023-yillarda 500 dan ortiq idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar bekor qilindi, qonunlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Mamlakatimiz asosiy qonunida birinchi marta “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va mamlakatimiz hududida

¹ Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development: Resolution adopted by the General Assembly on 25 September 2015 [70/1] // United Nations. General Assembly. – New York, 2015. – 35 p.

² Global Study on Legal Aid. Global Report // United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC), United Nations Development Programme (UNDP). – Vienna: United Nations, 2023. – 149 p. // <https://www.unodc.org/documents>

³ WJP Rule of Law Index 2024 // World Justice Project. – Washington, D.C., 2024. – 238 p // <https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index>

yagona huquqiy makon asosini tashkil etadi”, degan qoida mustahkamlandi (15-modda). Mazkur konstitutsiyaviy yangilik ushbu tadqiqotning dolzarbligi va zaruratini ko‘rsatib beradi. Bundan tashqari, tadqiqot “O‘zbekiston-2030” strategiyasida belgilangan maqsad – qonunlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilish rolini kuchaytirish va davlat huquq tizimini modernizatsiya qilishga hissa qo‘shadi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida asosida qabul qilingan), “Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonuni, “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi (2021), “Ta’lim to‘g‘risida”gi (2020), “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi (2012) qonunlar, “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2020-yil 19-maydagi “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va institutlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5997-son farmonlari hamda sohaga oid boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.

Huquqning harakatlanishi nazariyasi va amaliyoti muammolari bo‘yicha rivojlangan davlatlarning yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalarida tizimli izlanishlar olib borilmoqda. Ularda huquqning harakatlanish mexanizmlarini takomillashtirish, samaradorligini oshirish va jamiyat hayotidagi rolini kuchaytirish masalalari chuqur o‘rganilmoqda. Garvard universiteti huquq maktabida (Harvard Law School) olib borilgan tadqiqotlarda huquqning harakatlanish mexanizmlari insonlarning o‘zaro munosabatlarini tartibga solish va xulq-atvorini modellashtirish vositasi sifatida o‘rganilgan. Tadqiqotda huquq nafaqat normalar tizimi, balki ularning amal qilish jarayoni va ijtimoiy oqibatlarini o‘z ichiga oluvchi murakkab tizim ekanligi asoslab berilgan. Nagoya universiteti (Nagoya University)da zamonaviy huquq tizimlarida huquqning harakatlanish mexanizmlarining samaradorligi masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot natijalari asosida huquqning samarali harakatlanishi uchun zarur bo‘lgan institutsional, tashkiliy va huquqiy shart-sharoitlar aniqlangan. Gyottingen universiteti (Georg-August-Universität Göttingen)da huquqni amalga oshirishning ijtimoiy shartliligi va huquq samaradorligi omillari chuqur o‘rganilgan. Tadqiqotda huquqning harakatlanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar tizimli tahlil qilingan. Bugungi kunda Nyu-York universiteti (New York University), Shimoli-g‘arbiy universitet (Northwestern University, Kanada), Syurix universiteti (Zurich Universitat) kabi nufuzli ilmiy markazlarda ham huquqning harakatlanish mexanizmlari, uning samaradorligini oshirish omillari, huquqni

qo‘llash amaliyotini takomillashtirish masalalari bo‘yicha muhim tadqiqotlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi va Toshkent davlat yuridik universitetida huquqning harakatlanishi nazariyasi va amaliyoti muammolari, huquqiy normalarning samarali amal qilish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari bo‘yicha tizimli tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar natijalari milliy qonunchilikni takomillashtirish va huquqni qo‘llash amaliyotini rivojlantirishga xizmat qilmoqda¹.

Umuman olganda, bugungi kunda turli ilmiy markazlarda huquqning mohiyati, amal qilish shartlari va omillari, huquqning amal qilish mexanizmining mazmuni va tuzilishi, uning qonuniyligini ta‘minlash va samaradorligini oshirishga qaratilgan chuqur tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu esa mazkur yo‘nalishda yangi ilmiy izlanishlar olib borish zaruratini tasdiqlamoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. X.T.Odilqoriyev, N.Javliyev, M.A.Axmadshaeva, Sh.Berdiyarov, Z.M.Islamov, F.X.Otaxonov, F.X.Raximov, O.T.Xusanov, A.X.Saidov, I.T.Tulteyev, R.R.Xakimov, Sh.U.Yakubov kabi mahalliy yuridik fan namoyandalarining ishlarida huquq nazariyasi, huquqiy tartibga solish, huquqni amalga oshirish, huquqiy qadriyatlar va qonuniylikning umumiy va amaliy masalalari o‘rganilgan.

Xorijiy mamlakatlarda huquq harakatlanishining nazariy va amaliy jihatlari, uning mexanizmi, shakllari va vositalari, shuningdek, huquqning amal qilish sifati va samaradorligi masalalari bilan S.S. Alekseyev, V.V. Dedyuxin, V.I. Goyman, A. V. Malko, N.I. Matuzov, T.N. Radko, Yu.A. Tixomirov, V.K. Shundikov, T.Ya. Xabrieva (Rossiya), K. Molnau, K. Klenner, G. Xaney, L. Lotse, D. Utke (Germaniya), I. Sabo, K. Kulchar, P. Ssilaga (Vengriya), V. Peshka, E. Vrublevskiy (Polsha), R. Paund, R. Xoll, G. Berman (AQSh) va boshqa olimlar shug‘ullanishgan.

Ko‘plab ilmiy ishlarni o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, mahalliy huquq nazariyasida hozirga qadar huquq harakatlanishining mohiyati va amal qilish mexanizmi, uning shakllari, vositalari va natijalarining monografik konseptual tadqiqoti o‘tkazilmagan, bu esa ushbu dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan va «Huquq harakatlanishining imliy-nazariy va amaliy jihatlari» mavzusidagi fundamental ilmiy tadqiqot mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonni modernizatsiyalash sharoitida «huquqning harakatlanishi» fenomenining umumnazariy va amaliy muammolarini hamda huquq harakatlanishining zamonaviy konsepsiyasini kompleks tahlil qilish,

¹ Harvard Law School - Law and Society Program <https://hls.harvard.edu/research-programs/law-and-society/>; Nagoya University - Graduate School of Law <https://www.law.nagoya-u.ac.jp/en/research/>; Georg-August-Universität Göttingen - Faculty of Law <https://www.uni-goettingen.de/>; <https://www.law.nyu.edu/>; Northwestern University - Faculty of Law (Canada) <https://law.northwestern.edu/>; University of Zurich - Faculty of Law <https://www.ius.uzh.ch/en/research.html>; <https://tsul.uz/uz/research>.

shuningdek, huquqning ta'sirchanligini oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

huquqning mohiyati va mazmunini zamonaviy huquqni tushunish nazariyalari kontekstida ilmiy asoslash;

«huquqning harakatlanishi» kategoriyasi doirasida huquqqa faoliyatli hamda funksional yondashuvlarni nazariy tahlil qilish va ilmiy baholash;

huquqning harakatlanishini tizimli huquqiy hodisa sifatida ilmiy tavsiflash, shuningdek, huquqning harakatlanishi sohasi chegaralarini tahlil qilish;

huquqning harakatlanishi tizimi kontekstida «huquqiy ta'sir», «huquqiy tartibga solish» kategoriyalarini ilmiy tahlil qilish;

huquqning harakatlanishi mexanizmini ochib berish va uning huquqiy vositalar, yuridik faoliyat va huquqiy natija kabi elementlarini tahlil qilish;

huquqning harakatlanishi holatini, muammolari va takomillashtirish yo'llarini tadqiq qilish, uning samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini huquqning harakatlanishi, uning tarkibiy funksional qonuniyatlari va real hayotda salohiyatini ro'yobga chiqarish bilan bog'liq munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini huquq harakatlanishining umumnazariy konsepsiyasini yaratish uchun asos bo'lishi mumkin bo'lgan, shuningdek, uni sifat va samaradorligini takomillashtirishga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan huquqning harakatlanishi masalalariga oid yuridik fandagi kontseptual ta'limotlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy huquqiy, kontent-tahlil, mantiqiy-huquqiy, tarixiy tahlil, induksiya va deduktsiya, ilmiy manbaalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

maktabdan tashqari ta'lim hamda oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti shaklida ta'lim xizmatlarini ko'rsatishga doir faoliyatga yangi huquqiy mexanizm – vakolatli davlat organlarini xabardor qilish tartibini joriy qilish zarurligi asoslab berilgan;

dehqon xo'jaligining yer uchastkasini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yishga faqat qonunda nazarda tutilgan kompensatsiya to'liq hajmda berilganidan keyin yo'l qo'yilishi tartibini joriy qilish zarurligi ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berilgan;

tadbirkorlik subyektlariga nisbatan huquqiy ta'sir choralari, jumladan, atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatayotgan obyektlarning faoliyatini to'xtatish va (yoki) qayta yo'naltirishni faqat sud tartibida amalga oshirish tartibini joriy qilish zarurligi asoslantirilgan;

nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlariga o'z faoliyatini tashkil qilishda davlat ta'lim standartiga muvofiq tashkil etishi kerakligiga oid talabni joriy qilish zarurligi asoslab berilgan;

vakolatli davlat organlari tomonidan nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati, shuningdek litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish talablari hamda shartlariga rioya etilishi ustidan nazorat va monitoringni amalga oshirishdan oldin O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakilini xabardor qilishi zarurligi asoslab berilgan;

ta'lim to'g'risidagi hujjatni tan olish tartibini takomillashtirish, bunda har bir soha bo'yicha vakolatli davlat organini aniq belgilash zarurligi to'g'risidagi taklif asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan qoidalarni amalga oshirishning huquqiy mexanizmini takomillashtirishga, shuningdek, ularning bevosita amal qilishini ta'minlashga qaratilgan amaldagi qonunchilikka o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqildi va asoslab berildi;

O'zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonuniga normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosi ustidan monitoring va nazoratning samaradorligini oshirishga yordam beruvchi, ularning amaliy ro'yobga chiqarilishi sifati va to'liqligini kuzatish, tahlil qilish va baholash tartib-taomillarini o'z ichiga olgan talablar va tartib-taomillarni kiritish zarurati asoslangan;

qonunchilik hujjatlarining tartibga solish ta'sirini baholash tizimini takomillashtirish, qonunchilik talablarining ijrosi ustidan davlat va jamoat nazoratini kuchaytirish bo'yicha asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan;

huquqni qo'llash faoliyati samaradorligini oshirish, shuningdek, qonun talablarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Mazkur tadqiqot natijalari ishonchliligi qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotining ta'siri har tomonlama tahlil qilingani hamda rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asoslanilgani, shuningdek, nazariy xulosalar sotsiologik tadqiqotlar natijalari, statistik ma'lumotlarni umumlashtirish va ekspert muassasalarning xulosalari bilan asoslangani, tadqiqotning asosiy natijalari va muallif tavsiyalarining amaliyotga tatbiq etilganligi hamda tadqiqot natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati uning natijalari bo'yicha shakllantirilgan nazariy xulosalar, amaliy takliflar va tavsiyalar «huquqning harakatlanishi» fenomeni haqidagi bilimlarni chuqurlashtirishga, shuningdek, huquqning amal qilish mexanizmini yanada takomillashtirishga yordam berishi, huquqiy tartibga solish tizimini takomillashtirish, huquqning amal qilish sifati va natijadorligini oshirish masalalari bo'yicha boshqa ilmiy izlanishlar o'tkazish uchun asos bo'lishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati tadqiqot natijasida taklif etilgan amaliy tavsiyalar va takliflar amaldagi qonunchilikni takomillashtirishda, tegishli qonun loyihalarini tayyorlashda, shuningdek, davlat va huquq nazariyasi, konstitutsiyaviy huquq, qonunchilik texnikasi asoslari bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishda,

o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanilish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ilmiy tadqiqot natijalaridan quyidagilarda foydalanildi:

maktabdan tashqari ta‘lim hamda oilaviy nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkiloti shaklida ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatishga doir faoliyatga yangi huquqiy mexanizm – vakolatli davlat organlarini xabardor qilish tartibini joriy qilish zarurligi to‘g‘risidagi taklif O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-sentyabrdagi O‘RQ-957-sonli Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni 571-moddasini ishlab chiqishda o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 2023-yil 30-martdagi 06-13/26-sonli ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi maktabdan tashqari ta‘lim, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohalaridagi ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatish tartib-taomillarini soddalashtirishga, ulardan foydalanuvchilarning sonini kengaytirishga xizmat qilgan;

dehqon xo‘jaligining yer uchastkasini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yishga faqat qonunda nazarda tutilgan kompensatsiya to‘liq hajmda berilganidan keyin yo‘l qo‘yilishi tartibini joriy qilish zarurligi to‘g‘risidagi taklif O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyundagi O‘RQ-782-sonli Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonuni 25-moddasi to‘rtinchi qismini takomillashtirishda o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 2023-yil 30-martdagi 06-13/26-sonli ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi dehqon xo‘jaliklarining yerga egalik qilish va yerdan foydalanish huquqlarining kafolatlarini kuchaytirishga va to‘liq ro‘yobga chiqarilishiga xizmat qilgan;

tadbirkorlik subyektlariga nisbatan quyidagi huquqiy ta‘sir choralari, jumladan, atrof-muhitga zararli ta‘sir ko‘rsatayotgan obyektlarning faoliyatini to‘xtatish va (yoki) qayta yo‘naltirishni faqat sud tartibida amalga oshirish tartibini joriy qilish zarurligi to‘g‘risidagi taklif O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 2-martdagi O‘RQ-756-sonli Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonuni 42-moddasiga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarda o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 2023-yil 30-martdagi 06-13/26-sonli ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi tadbirkorlik faoliyati erkinligini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirishga, shuningdek, ularning faoliyatiga aralashuvni cheklashga xizmat qilgan;

nodavlat umumta‘lim o‘quv muassasalariga o‘z faoliyatini amalga oshirishda davlat ta‘lim standartlariga rioya qilish majburiyatini belgilash to‘g‘risidagi taklif O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-sentyabrdagi O‘RQ-957-sonli Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni 9-moddasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishda o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi

Oliy Majlisi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 1-maydagi 03-08/63-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi nodavlat ta'lim tashkilotlarining o'z faoliyatini davlat tomonidan belgilangan ta'lim standartlari asosida amalga oshirish majburiyatini mustahkamlashga xizmat qilgan;

vakolatli organlarning ular tomonidan nodavlat o'quv yurtlarida ta'lim sifatini nazorat qilish va monitoring olib borish choralarini amalga oshirishdan oldin O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakilini xabardor qilishi zarurligi to'g'risidagi taklif O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-sentyabrdagi O'RQ-957-sonli Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni 43-moddasining beshinchi qismiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarda o'z ifodasini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 1-maydagi 03-08/63-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi faoliyati ustidan nazorat amalga oshirilayotganda nodavlat ta'lim tashkilotlarining huquq va manfaatlarining ta'minlashga xizmat qilgan;

ta'lim to'g'risidagi hujjatni tan olish tartibini takomillashtirish, bunda har bir soha bo'yicha vakolatli davlat organini aniq belgilash zarurligi to'g'risidagi taklif O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-sentyabrdagi O'RQ-957-sonli Qonuni bilan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 60-moddasi ikkinchi qismini takomillashtirishda o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 1-maydagi 03-08/63-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni tan olish sohasidagi faoliyatini tartibga solishga, vakolatlar chegarasini belgilashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 16 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, xususan, 9 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida sinovdan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 28 ta ilmiy ish nashr qilingan, shu jumladan 1 ta monografiya, 15 ta ilmiy maqola (ulardan 5 tasi xorijiy nashrlarda), 12 ta ilmiy konferentsiya (ulardan 6 tasi xalqaro) tezislari nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 229 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi hamda zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari,

obyekti va predmeti yoritilgan, shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot ishining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaningning **“Huquq harakatlanishining umumnazariy va metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida huquq harakatlanishi fenomenining gnoseologik va etimologik talqini, ilmiy nazariy va metodologik masalalari tahlil qilingan. Unda bu kategoriyaning hozirgi huquqni tushunish ta'limotida tutgan o'rni, mavzuga faoliyatli hamda funksional yondashuv afzalliklari, huquq harakatlanishining ko'lami va chegaralari ko'rib chiqilgan.

Ushbu bobning *«Zamonaviy huquqni tushunish kontekstida huquqning mohiyati va mazmuni»* deb nomlangan birinchi paragrafi huquqni tushunish masalalarini ko'rib chiqishga bag'ishlangan, chunki huquqiy tizimni modernizatsiya qilish muvaffaqiyatini belgilovchi omillardan biri huquqning mohiyati va vazifasini tushunishdir. Dissertant huquqning tabiati, mazmuni va amal qilish mexanizmini aniqlash uchun zarur bo'lgan huquqni tushunishning dastlabki qoidalarini har tomonlama ko'rib chiqqan. Huquqni tushunishga turli yondashuvlarni anglagan holda, u shunday xulosaga keladiki, huquqni tushunish muammosi huquqning harakatlanishi mexanizmi bilan chambarchas bog'liq va huquqni tushunish masalasi nafaqat qat'iy nazariy, balki huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash subyektlarining tasavvurlari hamda qarashlarining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi amaliy ahamiyatga ham ega.

Muallifning fikriga ko'ra, huquqning mohiyatini tushunishga turli yondashuvlarning yutuqlarini o'zida organik ravishda birlashtirish va huquqning harakatlanishi mohiyatini chuqur bilish imkonini beradigan huquqni tushunishga integrativ yondashuv eng yuqori samaradorlikka ega. Shu bilan birga, u huquqiy hayotning turli qirralarini aks ettiruvchi turli yondashuvlar huquqning harakatlanishini har tomonlama bilish uchun foydali deb hisoblaydi. Integrativ yondashuv bir qator afzalliklarga ega, chunki u talqindagi bir tomonlamalikni bartaraf etadi va huquqni va uning harakatlanishini har tomonlama tadqiq etish imkoniyatini beradi, natijada, huquq nafaqat rasmiy ravishda mustahkamlangan normativ-huquqiy prinsiplar va normalar majmuasi sifatida, balki amalda haqiqiy faoliyat yuritish, amal qilish xususiyatlari va qobiliyatlariga ega bo'lgan ko'p o'lchovli fenomen sifatida namoyon bo'ladi.

Keyingi paragraf *«Huquqning harakatlanishini bilish kontekstida huquqqa faoliyatli va funksional yondashuvlar»* deb nomlanib, huquqning harakatlanishi mohiyatini ochib beruvchi asosiy tushunchalar sifatida «faoliyat» va «huquq funksiyasi» ilmiy kategoriyalarini har tomonlama tadqiq qiladi.

Dissertant «faoliyat paradigmasi» prizmasi orqali huquqning harakatlanishi va uning mexanizmini ko'rib chiqishni asosli deb hisoblaydi, uning asosida «faoliyat» kategoriyasi yotadi. Faoliyatli yondashuvni hisobga olgan holda, huquqning harakatlanishi ijtimoiy munosabatlarga huquqiy ta'sir o'tkaziladigan, huquqning maqsad va vazifalarini amalga oshirish ta'minlanadigan jarayon va vosita

orqali turli xil yuridik faoliyat turlarining yagona tizimi sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin.

O‘tkazilgan tahlil natijasida muallif shunday xulosaga keladiki, huquqning harakatlanishi konsentrlangan shaklda muayyan huquqiy shakllar, tartib-qoidalar, natijalarga ega bo‘lgan xilma-xil yuridik faoliyat ko‘rinishida bo‘ladi. Faoliyatli yondashuv doirasida huquqning harakatlanishi ijtimoiy munosabatlarga samarali huquqiy ta’sir o‘tkazish sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda huquqning harakatlanishining tashqi shakli aynan yuridik faoliyat, ya’ni huquq subyektlari huquqlardan foydalanadigan va majburiyatlarni bajaradigan doirada qonuniy xulq-atvorning o‘ziga xos shaklidir. Yuridik faoliyat huquqning harakatlanishining asosiy shakli, huquq hayotining namoyon bo‘lishi va bir vaqtning o‘zida huquq salohiyatini amalga oshirishni ta’minlovchi vositadir.

Muallif tomonidan huquqning harakatlanishi mohiyatini aks ettiruvchi hodisa sifatida yuridik faoliyat mazmuni tahlil qilinadi. Ushbu kontekstda u «amal qilish» terminining yuridik ahamiyatini Fuqarolik kodeksining bir qator normalari (4, 357, 1100-moddalar), Jinoyat kodeksi (11, 12, 13, 208, 302-moddalar), Jinoyat prosessual kodeksi va boshqa bir qator hujjatlar misolida ko‘rib chiqadi.

Huquqqa faoliyatli yondashuv uni hayot bilan bog‘laydigan, uning amal qiluvchi, o‘zgartiruvchi xususiyatini aks ettiruvchi huquqning faoliyat yuritish tomonlariga e’tibor qaratadi. Faqat harakatlanish huquqni jonli qiladi, chunki uning asosiy vazifasi – amal qilishdir. Ushbu xususiyat huquqning amalga oshirilishi, tatbiq etilishi, ro‘yobga chiqarilishi, qo‘llanilishini (umuman, amal qilishini) ta’minlovchi strategik va taktik usullar, shakllar va usullar tizimini qamrab oluvchi huquqiy siyosat nazariyasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Dissertant xulosasiga ko‘ra, faoliyatli yondashuv – bu ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning dinamik, amal qiluvchi vositasi sifatida huquqni tushunishni aks ettiruvchi huquqiy voqelikni nazariy bilish usulidir. U huquqning ijtimoiy mohiyati va vazifasini ochib beradi – faqat amal qilib, huquq o‘zining tartibga soluvchi vazifasini bajara oladi.

Keyingi – funksional yondashuv ham huquqning mohiyati va qadr-qimmatini, demak, uning harakatlanishini aniqroq yetkazish imkonini beradi. Dissertant ta’kidlaganidek, huquq funksiyasi huquqning amal qilish yo‘nalishi va usulini, huquqning ta’sir xususiyatini ifodalaydi. Huquq funksiyasi huquqning ijtimoiy munosabatlari u yoki bu sohasiga ta’sir qilish kanali, uning vazifasi va tabiatining ifodasi sifatida huquqning harakatlanishi yo‘nalishidir. Huquq funksiyalari uning amal qilishining nisbatan alohida yo‘nalishlaridir.

Olimlarning turli nuqtai nazarlaridan kelib chiqib, muallif shunday xulosani asoslaydi: huquqning funksiyasi – bu huquqning butun xilma-xilligidagi ijtimoiy hayotga maqsadli ta’siridir. Ular bevosita huquqning maqsad va vazifalari bilan bog‘liq, ularda huquqning mohiyati ifodalanadi, ularda huquqning mohiyatli, mazmunli va dinamik xususiyati namoyon bo‘ladi, huquqiy prinsiplar va talablarning amalga oshishi ta’minlanadi. Huquq funksiyalari huquqni «jonlantiradi», uni haqiqiy ijro tekisligiga o‘tkazadi va faoliyat yuritayotgan huquq – bu amal qiluvchi huquqdir. Huquqqa funksional yondashuv uning hayotiyligini,

tartibga solish salohiyati erishilishini yoritib beradi, huquqni uning ko‘p qirrali amal qilishida ko‘rsatadi.

Tadqiqot predmeti kontekstida muallif huquqning asosiy funksiyalarining mohiyatini batafsil ochib beradi va ularning mualliflik tasnifini taklif qiladi. Natijada, u shunday xulosaga keladi: huquq funksiyasi – bu muayyan vositalar, usullar va tartib-qoidalar orqali huquqning predmetli aniqlangan amal qilishidir. Aslida, huquqning amal qilishi huquq funksiyalarini amalga oshirish doirasida ochib beriladi, chunki aynan ularda huquqning tartibga solish salohiyati namoyon bo‘ladi. Huquqning barcha funksiyalarining yaxlit amalga oshirilishi amaldagi huquq, uning faoliyatidir.

Uchinchi paragraf «*Huquqning amal qilishi*» kategoriyasi: *tushunchasi, mohiyati va chegaralari*» deb nomlanib, ushbu ilmiy kategoriyaning har tomonlama nazariy tahliliga bag‘ishlangan. «Huquqiy ta’sir», «huquqiy tartibga solish», «huquqni amalga oshirish» kabi terminlarning kompleks tahlili asosida dissertant huquqning harakatlanishi mohiyatini ochib berishga harakat qiladi. Ushbu kategoriya eng keng ma’noda huquqning faoliyat yuritishini, uning huquq subyektlarining xulq-atvorida ifodalanishini, ya’ni real hayotda amal qilishini anglatadi, deb hisoblaydi.

Mazkur tushunchaga turli yondashuvlarni (R. Paund, X. Odilqoriev, V.Goyman, V. Dedyuxin, V. Lenchik, T. Radko, V. Sirix, I. Tulteyev va boshqalar) tanqidiy ko‘rib chiqib, dissertant huquqning harakatlanishini turli huquqiy hodisalar va jarayonlarga ta’sir qiluvchi keng fenomen sifatida baholash mumkin degan xulosaga keladi. «Imkoniyat» va «haqiqat» kategoriyalarining nisbati nuqtai nazaridan huquqning harakatlanishini ko‘rib chiqib, u yuridik zarurlikning (huquqiy imkoniyatning) haqiqatga (real huquqiy hayotga), o‘tishining o‘ziga xos bir ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi deb taxmin qiladi. Boshqacha aytganda, huquq, dastlab, o‘zida uning harakatlanishi natijasida haqiqatga aylanadigan huquqiy imkoniyatlarni to‘playdi. Bunda huquqning maqsadlari uning harakatlanishi uchun fundamental metodologik ahamiyatga ega.

Huquqning harakatlanishi huquqning tartibga solish salohiyatining namoyon bo‘lishi, uning yuridik kuchining amalga oshirilishidir. Muallifning fikriga ko‘ra, huquq aynan qayerda o‘z yuridik kuchini namoyon qilishi masalasini hal qilish uchun uning amal qilish chegaralarini belgilash zarur. Bunda huquqning harakatlanishi sohasi o‘ziga xos «yurisdiksiya zonasi»ni qamrab oladi, uning doirasida huquq yuridik kuchga ega va asosiy ijtimoiy tartibga soluvchi sifatida amal qiladi. Shuni hisobga olgan holda, dissertant huquqning fazoda, vaqtda, shuningdek, u qaratilgan shaxslar doirasida harakatlanishi sohasi masalalarini batafsil ko‘rib chiqadi.

Huquqning harakatlanishi huquq sohasi deb ataladigan yaxlitlik doirasida sodir bo‘ladi. Dissertantning fikriga ko‘ra, kuchli tartibga solish salohiyatiga ega bo‘lgan huquq mavjud ijtimoiy munosabatlarning butun gammasini tartibga sola olmaydi, bunga hojat ham yo‘q. U faqat huquqiy tartibga solishni obyektiv ravishda talab qiladigan munosabatlargagina tatbiq etilishi kerak. Shuning uchun ijtimoiy tartibga solish vositasi sifatida huquqqa juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda

bo'lish, huquqning amal qilish sohasini asossiz kengaytirishdan qochish kerak. Bayon etilganlarni hisobga olgan holda, muallif tomonidan ixtiyor va o'z-o'zini tartibga solish kabi institutlardan foydalanish masalalari batafsil ko'rib chiqilgan.

Ushbu paragrafda jamiyatning huquqiy madaniyat darajasining huquqning harakatlanishi sifati va natijalariga ta'siri kabi jihatlar ham batafsil ko'rib chiqilgan. Dissertant huquqning amal qilish sohasi uning harakatlanishi natijasi sifatida huquqiy tartibni qamrab oladi deb taxmin qiladi. Boshqacha aytganda, huquqiy tartib – bu harakatdagi huquq, bu amaldagi huquqdir. Uning ta'siri butun ijtimoiy munosabatlar tizimini tartibga solishning yagona vositasi sifatida yaxlit, kompleks ravishda amalga oshirilganda, huquqning harakatlanishining sinergetik jihatiga alohida e'tibor qaratilgan.

Paragrafni umumlashtirib, muallif shunday xulosaga keladi: huquqning harakatlanishi – bu uning ijtimoiy munosabatlarga ko'p qirrali ta'sirining yaxlit namoyon bo'lishidir, u huquqning tartibga soluvchi-dinamik salohiyatini, uning mazmuni va funksiyalarini qonuniy ravishda aks ettiradi. Uning amal qilishi muayyan chegaralar bilan cheklangan: fazo, vaqt va shaxslar doirasi chegaralari. Huquq muayyan huquqiy vositalar, shakllar, usullar va tartib-qoidalar orqali amalga oshiriladi. Uning natijasi huquqiy tartibning muayyan darajasidir.

Dissertatsiyaning «**Huquqning amal qilishi: mazmuni va tuzilishi**» deb nomlangan ikkinchi bobi «huquqning harakatlanishi» fenomenini tizimli hodisa sifatida tahlil qilishga, huquq ijodkorligining huquqning harakatlanishi bilan nisbatini o'rganishga, huquqning harakatlanishi tizimida huquqiy ta'sirni ko'rib chiqishga, shuningdek, huquqning harakatlanishi tizimida huquqiy tartibga solish masalalariga bag'ishlangan.

«*Huquqning tizimli hodisa sifatida amal qilishi*» nomli birinchi paragrafi ko'rib chiqilayotgan fenomenning tizimli belgilari nazariy tahlilini o'z ichiga oladi. Huquq – tizimli hodisa, bu amaldagi tizim, dinamik hodisadir. Ko'rsatilgan tushunchaga asoslanib, dissertant huquq harakatlanishining tizimliliigi huquqning o'zining tizimliliigidan kelib chiqadi deb taxmin qiladi. Aynan huquqning tizimliliigi huquqning harakatlanishining tizimli xususiyatini belgilaydi, uning mexanizmi mazmunini aniqlaydi.

X.T. Odilqoriyev, Sh.U. Yakubov, E.V. Belyakovich va V.V. Dedyuxinlarning pozitsiyalarini tahlil qilib, dissertant «huquqning amal qilishi» tushunchasi tizimli hodisa bo'lib, huquqiy voqelikning ijtimoiy munosabatlarga ta'sirining o'zaro bog'liq elementlari va jarayonlarining butun majmuasini o'z ichiga oladi degan xulosaga keladi. Tizimli tahlilga asoslanib, muallif tomonidan ko'rib chiqilayotgan tushunchaning o'ziga xos ta'rifi ishlab chiqildi: *Huquqning harakatlanishi – bu huquqning ijtimoiy munosabatlarga ta'sirining kompleks jarayoni bo'lib, huquqiy xususiyatga ega bo'lgan natijalarga olib keladigan o'zaro bog'liq bosqichlar, stadiyalar va aktlardan iborat ko'p qirrali tizimli ijtimoiy hodisadir.* Qolaversa, ushbu jarayon barcha huquqiy tartibga soluvchilar, subyektlar, vositalar va asboblarni tizimining «ishi»ni o'z ichiga oladi, u go'yoki ularni «jonlantiradi», ularni nafaqat statikada, balki dinamikada ham namoyon qiladi.

Shunday qilib, huquqning harakatlanishi tizimi huquqni maqsadlariga erishishni ta'minlash maqsadida huquqning ijtimoiy munosabatlarga ta'siri amalga oshiriladigan vositalar, shakllar, usullar va tartib-qoidalarning mantiqan tashkil etilgan dinamik majmuasini ifodalaydi. Huquq harakatlanishining quyidagi belgilari ajratib ko'rsatilgan: tizimlilik, tuzilmaviy qurilish, maqsadga yo'naltirilganlik, dinamiklik.

Keyingi paragrafda huquq ijodkorligi va uning huquqning harakatlanishi bilan nisbati ko'rib chiqiladi. Huquq ijodkorligi muammolarini o'rgangan olimlarning turli yondashuvlarini (Z.M. Islamov, A.X. Saidov, U. Tadjixanov, X.T. Odilqoriyev, Yu.A. Tixomirov) tahlil qilib, dissertant ilmiy munozaraga kirishadi va huquq ijodkorligi, umuman, huquqning harakatlanishi kabi, ijtimoiy munosabatlarga ta'sirning tashkil etuvchi-tartibga soluvchi xususiyatiga ega, degan xulosaga keladi.

Huquq ijodkorligi va huquqning harakatlanishi o'zaro bog'liqligi nuqtai nazaridan kelajakda huquqning real harakatlanishini ta'minlash, uning tartibga solish salohiyatini kuchaytirish uchun mavjud bo'shliqlar, ziddiyatlar, huquqiy tartibga solishning kamchiliklarini aniqlashga yordam beradigan prognoz baholash muhimdir. «Huquqning harakatlanishi» kategoriyasi kontekstida huquq ijodkorligi texnologik operatsiyalarning prinsiplari va usullariga muvofiq amalga oshirilgan huquq normalarini shakllantirish bo'yicha faoliyat natijasi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Huquq ijodkorligi natijalarining sifatiga, shu jumladan, korrupsiyaga qarshi ekspertizani o'z ichiga olgan huquqiy ekspertizani o'tkazish ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Huquq ijodkorligi huquqning harakatlanishi mexanizmining muhim elementini tashkil etadi, chunki u huquq mazmuniga muayyan maqsadlarni kiritadi. Ushbu mexanizmning keyingi elementi bo'lgan huquqning harakatlanishi esa, bizga ularning erishilish darajasini, huquqning ijtimoiy munosabatlarga ta'sirining natijadorlik darajasini ko'rsatadi. Ko'p jihatdan, huquq ijodkorligining sifati va samaradorligi huquqning harakatlanishi samaradorligini baholash jarayonida aniqlanadi, huquqning harakatlanishi samaradorligi esa, umuman, davlatning huquqiy siyosati samaradorligini belgilaydi. Buning uchun huquqning harakatlanishi samaradorligini, huquq ijodkorligi va huquqni harakatlanishining muvofiqligi va natijadorligini aniqlaydigan tartibga solish ta'sirini baholash (TSB) qo'llaniladi.

Huquq ijodkorligining sifati huquqning harakatlanishi samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Axir, huquqning harakatlanishi tabiatini tushunmaslik huquq ijodkorligi amal qilmaydigan normalarning qabul qilinishiga olib keladi. Huquq ijodkorligining mohiyatini uning huquqning harakatlanishi bilan nisbati nuqtai nazaridan ko'rib chiqib, dissertant aynan huquq ijodkorligi huquqning mazmunini, uning maqsad va vazifalarini belgilaydi deb qayd etadi. Shuning uchun u huquqning harakatlanishi tizimi, uning mexanizmining organik elementini tashkil etadi. U nafaqat ijobiy huquqni keltirib chiqaradi, balki o'zi ham huquq harakatlanishining namoyon bo'lishidir.

Tadqiqotning «*Huquqning amal qilish tizimida huquqiy ta'sir*» nomli uchinchi paragrafi huquqning harakatlanishi tizimining huquqiy ta'sir kabi

elementini ko'rib chiqishga bag'ishlangan. Uni tahlil qilishda dissertant uning huquqning ijtimoiy munosabatlarga, huquqiy madaniyatga va xulq-atvorga ta'sirining butun jarayonini qamrab olishidan kelib chiqadi. Bu huquq mazmuni va talablarining hayotga samarali potensial ifodasidir. Ya'ni, bu – huquqning ijtimoiy munosabatlarga tartibga soluvchi ta'sir ko'rsatishining potensial imkoniyatini amalga oshirishdir. Huquqning ta'siri uning mohiyati va talablarini qabul qilishni ham, ularni amalda ifodalashni ham, bu ifodaning natijasi – huquqiy tartibni ham qamrab oladi.

Dissertant huquqiy ta'sirning axborot ta'siri, yo'naltiruvchi ta'siri va maxsus-yuridik ta'siri kabi shakllarini batafsil ko'rib chiqadi. Huquqiy ta'sir va huquq harakatlanishining nisbati haqida gapirar ekan, muallif oxirgisi huquqning ijtimoiy munosabatlarga ta'sirining butun jarayonlari majmuasini o'z ichiga oladi deb taxmin qiladi. Uning fikriga ko'ra, huquqning barcha amal qilish shakllarini huquqiy ta'sirga tushirib bo'lmaydi, chunki ikkinchisi birinchisini qamrab oladi. Huquqning harakatlanishi kengroq bo'lib, o'zining tashqi ko'rinishlaridan biri sifatida huquqning ta'sirini o'z ichiga oladi. Huquq doimo bevosita amal qilmaydi, u ijtimoiy munosabatlarga bilvosita ham ta'sir ko'rsatadi (masalan, huquq analogiyasi).

Dissertant huquqiy ta'sir huquqning mavjudligi faktidan kelib chiqishi mumkin deb hisoblaydi, masalan, uning ta'sir potentsiali Jinoyat kodeksi bilan jinoyat sodir etishni «sukutli» taqiqlash faktidadir. Ushbu kodeksda bevosita qayd etilmagan bo'lsa ham, uning har bir normasining dispozitsiyasi normalar gipotezalarida ko'rsatilgan harakatlarni sodir etishni taqiqlaydi. Agar dispozitsiya talabi buzilgan bo'lsa, gipotezalarga muvofiq normada ko'zda tutilgan sanksiyalar kuchga kiradi.

«Huquqning ta'siri» tushunchasini ko'rib chiqishda «huquqning harakatsizligi», «huquqning salbiy ta'siri» kabi kategoriyalar mavjudligini ham nazarda tutish kerak. Huquqning ta'sirini ko'rib chiqishda mazkur kategoriyalardan foydalanish huquqning ta'sirining mohiyati va qadr-qimmatini huquqiy hodisa sifatida, tizim va huquqning harakatlanishi mexanizmining elementi sifatida yanada yaqqol va aniq aniqlashga imkon beradi.

Keyingi «*Huquqiy tartibga solish va uning huquqning amal qilish tizimidagi o'rni*» nomli to'rtinchi paragrafi muayyan tartibda, shakllarda va tartib-qoidalarda amalga oshiriladigan, huquqni «jonlantiradigan», uni hayotga tatbiq etadigan alohida faoliyat sifatida huquqiy tartibga solishning turli jihatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Huquqiy tartibga solish ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishni ta'minlaydigan huquqning harakatlanishi mexanizmining asosiy ishchi vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu tartibga solish amalga oshiriladigan maxsus huquqiy vositalar majmuasi, bu – jarayon, bu – ta'sir, bu – tartibga solingan yuridik ta'sir, bu – natijali ta'sir. Bu huquqiy tartibga solish mazmuni faoliyat, normativ-ta'sir etuvchi, maxsus-yuridik va natijadorlik jihatlariga ega ekanligini anglatadi.

Huquqiy tartibga solish mexanizmida maqsad, ya'ni huquq amal qilishining istalgan ideal natijasi alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, huquqiy tartibga solish o'z obyektini, predmetini, vositalari, asboblari, tartib-qoidalarini o'z ichiga oladi. Unda

muayyan turlar, usullar, yo‘llar, rejimlar va funksiyalarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Aslida, huquqiy tartibga solish tizimining barcha tarkibiy qismlari huquqning harakatlanishi tizimiga ham kiradi, chunki ularning mexanizmlari ko‘p jihatdan bir xil elementlardan iborat. Shunday qilib, huquqiy tartibga solish o‘z «ishida», dinamikasida huquqiy tartibga solish mexanizmini tashkil etuvchi keng doiradagi elementlarni qamrab oladi. Bayon etilganlarga asoslanib, dissertant shunday xulosaga keladi: huquqiy tartibga solish ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tashkil etish va tartibga solishning murakkab jarayoni bo‘lgani holda o‘zi ham yanada keng hodisa – huquqning harakatlanishining tarkibiy qismidir.

Shunday qilib, muallifning fikriga ko‘ra, huquqiy tartibga solish jarayonida huquqda belgilangan maqsadlar va imkoniyatlar real voqelikka aylanadi, u huquqning statikasini (qonunchilik) ham, uning dinamikasini (faoliyat, faol ta’sir) ham o‘z ichiga oladi, yuridik jihatdan lozim bo‘lgan narsani mavjudlik – real amaliyotga o‘tkazadi. Boshqacha aytganda, u huquqning harakatlanishi mexanizmining harakatlantiruvchi elementi, «motori» vazifasini bajaradi. Dissertant tomonidan mualliflik ta’rifi taklif etilgan: *Huquqiy tartibga solish – bu ijtimoiy munosabatlarga faol maqsadli ta’sir o‘tkazish, ularni huquqiy tartibini o‘rnatish uchun amalga oshiriladigan uyushgan dinamik huquqiy hodisalar, shakllar, tartib-qoidalar va vositalar tizimini ifodalaydi, huquqning harakatlanishini ta’minlaydi.*

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **huquqning harakatlanishi mexanizmini o‘rganishga** bag‘ishlangan. Ko‘rsatilgan bobning birinchi paragrafi «*Huquqiy vositalar huquqning harakatlanishi asboblari sifatida*» deb nomlanadi. Huquqning harakatlanishi fenomenining muhim elementi uning instrumental-dinamik tarkibiy qismi, uning mexanizmidir. Shuning uchun huquqning harakatlanishini uning mexanizmining instrumental elementlarini tahlil qilish va baholash nuqtai nazaridan o‘rganish muhimdir.

Dissertant huquqning ijtimoiy amaliyot uning talablari namoyon bo‘lishi sifatidagi amal qilishi huquqning amal qilish mexanizmining instrumentariysini tashkil etuvchi muayyan vositalar tizimisiz mumkin emas deb hisoblaydi. R. Paundning “Zamonaviy huquq – bu amaldagi huquq” degan tezisidan kelib chiqib, muallif huquqning amal qilish mexanizmining predmetli tarkibiy qismini – uning amal qilishini ta’minlaydigan instrumentariy, vositalar va tartib-qoidalar to‘plamini aniqlashga harakat qildi.

Huquq harakatlanishining instrumental konsepsiyasiga asoslanib, dissertant uni ijtimoiy munosabatlarga natijali ta’sirni ta’minlaydigan tuzilmaviy-funksional birlikda bo‘lgan huquqiy vositalar majmuasi sifatida tushunishni taklif qiladi. Ushbu ta’rif yuqorida ko‘rsatilgan vositalar majmuasi statikada ko‘rib chiqilganda qo‘llaniladi, biroq uni dinamikada ko‘rib chiqishda u mexanizmning, «ishlaydigan» huquqiy vositalar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, qo‘llanilishi natijasida huquq maqsadlariga erishishga olib keladigan huquqiy vositalar, tartib-qoidalar va usullar tizimi huquqning yaxlit harakatlanish mexanizmini tashkil etadi.

Shuningdek, dissertant tomonidan, uning tarkibiy qismlari bo‘lgan huquqiy vositalar nuqtai nazaridan huquqning harakatlanishi mexanizmining o‘ziga xosligi aniqlandi. Muallif tomonidan mexanizmlarning turlari ajratib ko‘rsatildi va

tavsiflandi, ularning har biriga muayyan yuridik vositalar va tartibga solish usullari xosdir: xususiy huquq sohasida, ma'muriy tartibga solish sohasida va jinoiy-huquqiy tartibga solish sohasida.

Dissertatsiyaning «*Yuridik faoliyat huquqning amal qilishining asosi sifatida*» nomli ikkinchi paragrafi huquqning harakatlanishi kontekstida yuridik faoliyatning vazifasi, mazmuni va shakllari bilan bog'liq masalalarning nazariy-huquqiy tahlilini o'z ichiga oladi. Dissertantning fikriga ko'ra, «yuridik faoliyat» tushunchasi huquqning harakatlanishini uning dinamikasida tartibga solingan jarayon sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi.

Yuridik faoliyat huquqning harakatlanishi mexanizmining tashqi ko'rinishini ifodalagani sababli, dissertant shunday taxmin qiladi: u huquqqa asoslangan, huquqning maqsad va vazifalarini amalga oshiradi, huquqning tartibga solish yoki protsessual normalari orqali tashkil etilgan, huquqiy shakllarda namoyon bo'ladi, huquqiy natijalarga olib keladi. Uning mazmuniy va rasmiy jihatlari, maqsadlari va natijalari huquqning harakatlanishining faol-tashkil etuvchi tabiatini belgilaydi.

Yuridik faoliyatni tushunishga bo'lgan turli yondashuvlarni tahlil qilib, muallif u huquq normalari bilan tartibga solingan, vaqt o'tishi bilan davom etadigan huquqiy harakatlar va tartib-qoidalarning murakkab tizimini ifodalaydi, degan fikrga keladi. Muallifning fikriga ko'ra, yuridik faoliyat integrativ xususiyatga ega, chunki u huquqning yagona maqsad va vazifalariga erishishga qaratilgan, shu bilan birga, huquqiy tizimning barcha elementlarini birlashtiradi. Shuni hisobga olgan holda, ushbu hodisaning metodologik yadrosini tashkil etuvchi yuridik faoliyat prinsiplari ko'rib chiqilgan.

Tahlilni yakunlab, dissertant shunday xulosaga keladi: yuridik faoliyat huquqiy xususiyatga ega bo'lgan muayyan shakllar, usullar va tartib-qoidalar majmuasi sifatida namoyon bo'lib, huquqning harakatlanishi tizimining muhim elementi hisoblanadi. Aynan uning sifati, ko'pincha, huquqning ta'sirchanligini belgilaydi. U huquqiy faollikning alohida namoyon bo'lishi, huquqiy hayotning mavjud bo'lish va rivojlanish usuli, huquqning harakatlanishi va yuridik voqelikni o'zgartirish usulidir. Usiz, huquq subyektlarining faoliyatisiz, huquqiy vositalar va tartib-qoidalarni amaliy qo'llamasdan huquqning harakatlanishi mumkin emas.

Ushbu bobning uchinchi paragrafi **huquqning harakatlanishi mexanizmidagi huquqiy natija** bilan bog'liq masalalarga bag'ishlangan. Huquqning harakatlanishi natijasi huquqda belgilangan maqsadlarga erishishda ifodalanadi. Dissertantning fikriga ko'ra, huquqning harakatlanishi natijasining mohiyatini «huquqiy tartib» kabi kategoriya bilan belgilash mumkin. Aynan huquqiy tartib u tomonidan huquqning harakatlanishining asosiy natijasi, uning ijtimoiy-yuridik oqibatlari, huquqiy hayotning muayyan sifat holatidek ko'rib chiqiladi.

Ijtimoiy munosabatlarning amaldagi tartibga solinganlik holati sifatida huquqiy tartib huquqning real harakatlanishi natijasini ifodalaydi. Huquqiy tartibning bunday tushunilishi uning «huquqning harakatlanishi» kategoriyasi bilan genetik bog'liqligini anglatadi. Shuning uchun huquqning harakatlanishi natijasi bevosita huquqning harakatlanishi mexanizmining samaradorlik darajasiga bog'liq:

uning samaradorligi qanchalik yuqori bo'lsa, huquqning harakatlanishi natijasi shunchalik yaxshi bo'ladi.

Huquqning amal qilish mexanizmi kontekstida «huquqning amal qilish samaradorligi» kategoriyasini tadqiq qilgan muallif huquqning maqsadli amal qilishining natijadorligini doimiy ravishda baholashni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi. «Huquqning harakatlanishi samaradorligi» kategoriyasining mutlaqligi o'zgarmas emasligini ta'kidlab, u shunday xulosaga keladi: bu samaradorlikni daraja, miqdor kabi terminlar yordamida o'lchash (belgilash) mumkin. Shundan kelib chiqib, u tomonidan ushbu tushunchaning quyidagi ta'rifi taklif etilgan: *bu huquqning harakatlanishining natijadorlik darajasini (miqdorini) va uning maqsadlariga erishishni, jamiyatda huquqiy tartib o'rnatishni belgilovchi baholash xususiyatidir.*

Huquqning harakatlanishi natijadorligi masalalarini o'rganishda muallif uni ta'minlashning huquqiy monitoring va qonunchilikning tartibga solish ta'sirini baholash kabi muhim yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratdi. Ushbu yo'nalishdagi ishni yaxshilash uchun bunday monitoringning tashkiliy mexanizmini takomillashtirish va obyektiv ko'rsatkichlar hamda indikatorlar tizimini joriy etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Xulosa qilib, dissertant: huquqiy tartib – bu amalda shakllangan huquq harakatlanishining yig'indi amaliyotining holati, amaldagi huquqning holatidir. U huquq harakatlanishining yakuni sifatida shakllanadi va tuziladi. Huquqning harakatlanishi samaradorligi uning natijadorligida, huquqning maqsadlari va vazifasiga muvofiqlik darajasida namoyon bo'ladi. Huquqiy tartibning darajasi huquqning harakatlanishi samaralimi yoki yo'qmi, agar samarali bo'lsa, qay darajada ekanligiga bog'liq, deya ta'kidlaydi.

«Huquqning amal qilish samaradorligini oshirish muammolari» deb nomlangan to'rtinchi bob huquqning harakatlanishi natijadorligini ta'minlovchi omillar va sharoitlar, uni ta'minlashda qonuniylikning o'rni va ahamiyati, shuningdek, huquqning harakatlanishi samaradorligini oshirish usullari va yo'llari tahlilini o'z ichiga oladi.

«Huquqning amal qilish infratuzilmasi va uni takomillashtirish masalalari» nomli birinchi paragraf huquqning faoliyat yuritishini, uning harakatlanishi va amalga oshirilishini ta'minlovchi sharoitlar, omillar, talablar va boshqa elementlarning tahlilini o'z ichiga oladi.

Dissertant «huquqning amal qilish infratuzilmasi» kategoriyasini huquqning harakatlanishini ta'minlovchi, huquqning real faoliyat yuritishiga yordam beruvchi subyektlar, resurslar, sharoitlar va tartib-qoidalar tizimi sifatida aniqlaydi. Boshqacha aytganda, bu – huquq harakatlanishi mumkin bo'lgan yordamchi vositalar, texnologiyalar va sharoitlar majmuasidir. U huquqning real hayotga tatbiq etilishiga yordam beruvchi huquqiy va nohuquqiy xususiyatdagi elementlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu kontekstda huquqning harakatlanishi infratuzilmasining quyidagi asosiy elementlari tahlil qilinadi: *huquqiy madaniyat, huquqiy makon, huquqiy muhit, davlat va nodavlat organlarining faoliyati, ijtimoiy normalar tizimi.*

Dissertantning fikriga ko‘ra, huquqning harakatlanishi infratuzilmasi o‘ziga xos «fon», huquqning amaldagi «ishini» ta‘minlovchi, uning tartibga solish salohiyatini amalga oshirishga yordam beruvchi yordamchi mexanizmni ifodalaydi. Bu infratuzilma huquq harakatlanishining ham tashqi, ham ichki sharoitlarini qamrab oladi. Ko‘rib chiqilayotgan tushunchaga quyidagicha mualliflik ta‘rifi berilgan: huquqning harakatlanishi infratuzilmasi – bu huquqda belgilangan maqsadlarga natijali erishish va uning tartibga solish salohiyatini amalga oshirish imkoniyatlarini yaratuvchi moddiy, institutsional va boshqa resurslar, omillar va sharoitlarning yaxlit majmuasidir.

Keyingi paragraf «*Huquqning amal qilishining qonuniyligi va uni ta‘minlash masalalari*» deb nomlanib, huquqning harakatlanishi mexanizmining muhim sharti va talabi sifatida qonuniyligni ta‘minlash masalalarining tahlildan o‘tkaziladi.

Bugungi kunda «O‘zbekiston–2030» strategiyasini amalga oshirish, mamlakatning barqaror rivojlanishi huquqiy asoslarini takomillashtirish sharoitida mamlakatda qonuniyligi va huquq-tartibotni ta‘minlash masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Qonuniyligi tamoyili asosida faoliyat yurituvchi natijali huquqiy tartibga solish tizimisiz rivojlanishning strategik maqsadlariga erishishni ta‘minlash mumkin emas.

Ushbu muammoni tadqiq qilar ekan, dissertant shunday xulosaga keladi: bir tomondan, qonuniyligi huquqning amal qilishining, uning barqaror, tegishli faoliyat yuritishining, huquqni harakatlanishining kutilgan natijalariga erishishning zarur sharti hisoblanadi, boshqa tomondan esa, huquqning harakatlanishi mexanizmi, uning vositalari va tartib-qoidalari qonuniyligni ta‘minlash uchun ishlatiladi. Ushbu yondashuvga asoslanib, u huquqning harakatlanishi mexanizmini uning qonuniyligi darajasini oshirish orqali takomillashtirish bo‘yicha bir qator takliflarni asoslaydi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida», «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida», «O‘zbekiston Respublikasida davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida»gi qonunlari normalarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot kontekstida qonuniyligi, dissertantning fikriga ko‘ra, shunchaki huquq normalari talablarini amalga oshirishni anglatmaydi, u huquqning harakatlanishining belgilovchi omili sifatida namoyon bo‘ladi. U huquqning faoliyat yuritishining sifat tavsifini ifodalaydi, huquqning harakatlanishi rejimini tavsiflaydi. Qonuniylikka rioya qilish huquqning harakatlanishining ham xususiyati, ham namoyon bo‘lishidir.

Bayon etilganlarni hisobga olgan holda, muallif huquqning harakatlanishi qonuniyligining xususiyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi quyidagi omillarni bartaraf etish to‘g‘risidagi taklifni asoslaydi: huquq subyektlari vakolatlari chegaralarining tartibga solinmaganligi yoki oshirib yuborilishi, bevosita qonunchilik tartibga solishning yetarli emasligi, uni qonunosti hujjatlar bilan almashtirilishi, yuridik texnika qoidalariga rioya qilmaslik, huquq subyektlari huquqiy salohiyatining yetarli emasligi, bu esa, huquq ijodkorligi va huquqni qo‘llash faoliyatida xatolarga olib keladi.

Keyingi paragraf «Huquqning harakatlanishi samaradorligini oshirish muammolari va yo'llari» deb nomlanadi va huquqning to'liq va natijali amal qilishiga xalaqit berayotgan mavjud kamchiliklar, muammolar va «oq dog'lar» tahlilini o'z ichiga oladi.

Dissertant huquqning harakatlanishi samaradorligini huquq maqsadiga erishish va uning harakatlanishi natijasining maksimal foydalilik darajasi sifatida belgilar ekan, bunday natija huquq talablarini hayotga tatbiq etish bo'yicha faol faoliyat orqali erishilishini, u huquq subyektlarining harakatlaridan ajralmas ekanligini ta'kidlaydi.

Muallif tomonidan tadqiqot predmetini hisobga olgan holda «Ta'lim to'g'risida» va «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida» gi qonunlarning amal qilishi masalalari bo'yicha sotsiologik so'rov o'tkazildi, unda O'zbekistonning ikkita yetakchi oliy o'quv yurtining talabalari va o'qituvchilari, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari ishtirok etdi. Shuningdek, ayrim qonunlarning (Jinoyat-ijroiya kodeksi, «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida» gi Qonun va boshqalar) amal qilishi misolida huquqni qo'llash amaliyoti o'rganildi, qonunchilikda mustahkamlangan baholash tushunchalarining huquqning harakatlanishi mexanizmiga ta'siri tadqiq etildi.

Tahlil ko'rsatganidek, baholash tushunchalarining noaniqligi qonun normalarining ikki xil talqin qilinishiga va qo'llanilishiga olib keladi. Ba'zan bir tushuncha o'zi aniqlashtirishga muhtoj bo'lgan boshqa tushuncha orqali aniqlanadi. Natijada, huquqning harakatlanishi mexanizmida «nosozlik» yuz beradi. Huquqning harakatlanishining muvofiqligi va birligini ta'minlash uchun muallif quyidagi talabni qonuniy ravishda mustahkamlashni taklif qiladi: har bir qonun, albatta, glossariy, ya'ni har bir terminning ma'nosini ochib beruvchi izohli lug'atni o'z ichiga olishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonuni misolida dissertant qonun talablarini amalga oshirishning aniq mexanizmlari va tartib-qoidalarining ishlab chiqilmaganligi yoki yo'qligida ifodalangan huquqning harakatlanishi «texnologiyasi»ni tanqidiy ko'rib chiqdi. Ko'pincha, qonun normalari bunday mexanizmlar bilan mustahkamlanmagan, uning qoidalari amaliyotda ularning harakatlanishi tartib-qoidalari bilan ta'minlanmagan deklarativ xususiyatga ega. O'tkazilgan tahlil asosida shunday xulosa qilindi – huquqning samaradorligi shunchaki uning harakatlanishi yakuni emas, balki qonunda belgilangan maqsad va olingan natija o'rtasidagi nisbatdir.

Dissertant huquqning harakatlanishi mexanizmining muhim qismini normativ-huquqiy hujjatlarning konstitutsiyaviyligi ustidan sud nazorati tashkil etadi, deb hisoblaydi. Shuni hisobga olgan holda, huquqning to'liq harakatlanishi, ayniqsa, mamlakat Konstitutsiyasining amal qilishini ta'minlash maqsadida u quyidagilarni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi:

- Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi holati uchun Konstitutsiyaviy sudning, Oliy Majlis palatalariga va mamlakat Prezidentiga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylik holati to'g'risidagi yillik ma'lumot taqdim etishdan

tashqari, javobgarlik mexanizmini belgilagagan holda, uning ishini tubdan faollashtirish;

- Qonunga viloyat xalq deputatlari Kengashlarining Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish va ularni ko‘rib chiqishning huquqiy mexanizmini joriy etish;

- Konstitutsiyaviy sudga siyosiy partiyalarning faoliyati mamlakat Konstitutsiyasiga muvofiqligi to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish va ularni nokonstitutsiyaviy deb topish vakolatini berish.

Qonunchilikning ijrosi ustidan davlat nazoratining yaxlit tizimini shakllantirish uchun, jamoatchilik nazoratini tartibga solishning ijobiy tajribasini hisobga olgan holda, davlatning ko‘plab nazorat qiluvchi organlarining nazorat faoliyatini amalga oshirishga yagona yondashuvni ta‘minlash maqsadida, «Davlat nazorati to‘g‘risida»gi qonunni ishlab chiqish va qabul qilish orqali davlatning ko‘rsatilgan funksiyasining qonunchilik asoslarini tartibga solish taklif etiladi.

Shuningdek, huquqning harakatlanishini baholash tizimini takomillashtirish uchun uning quyidagi vazifalarini qonuniy ravishda mustahkamlash taklif etildi:

- maqsadlarga erishish darajasini, tahdidlar, xavf-xatarlar, oqibatlar va boshqa baholash mezonlarini hisobga oluvchi aniq ko‘rsatkichlar va indikatorlarni aniqlash;

- huquqning harakatlanishi samaradorligini baholash bo‘yicha metodikalar, tavsiyalar ishlab chiqish va joriy etish;

- huquqning harakatlanishi holati, muammolari va natijalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni yig‘ish, umumlashtirish va tahlil qilish;

- belgilangan maqsadlarga erishish darajasini aks ettiruvchi huquqning harakatlanishi samaradorligi darajasini aniqlash.

XULOSA

“Huquqning harakatlanishi: nazariya va amaliyot muammolari” mavzuida olib borilgan ilmiy tadqiqot asosida quyidagi xulosalar, takliflar va tavsiyalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar

1. Mamlakat va uning huquqiy tizimini modernizatsiya qilish muvaffaqiyatini belgilaydigan muhim omil – zamonaviy huquqning mohiyati hamda vazifalarini anglash ekanligi asoslab berildi. “Huquq” tushunchasi muammosi huquqning harakatlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham egadir. Huquqning harakatlanish kontekstida tushunilishi uning xususiyatlari tahliliga integrativ yondashuvni anglatadi. Zamonaviy huquq – bu dinamikada, harakatda ko‘rib chiqiladigan huquqdir. Faqat shunday ko‘rinishdagina u "yashaydi" va faoliyat ko‘rsatadi. Huquqning harakatlanishi uning mavjudlik shaklidir.

2. Ilmiy qarashlarni umumlashtirish natijasida shunday xulosa qilindiki, huquqni ijtimoiy munosabatlarga tartibga soluvchi ta’sir ko‘rsatadigan murakkab institut sifatida tushunish «huquq ta’siri» fenomeni tabiatini yaxshiroq tushunish uchun asos yaratadi. Bunday yondashuvda huquq nafaqat rasmiy tarzda mustahkamlangan normativ-huquqiy qoidalar majmuasi, balki amaliy faoliyat ko‘rsata oladigan ko‘p qirrali fenomen namoyon bo‘ladi.

3. Huquqni anglashga faoliyatli va funksional yondashuvlar yordam beradi. Birinchi yondashuvning mohiyati shundaki, u "huquq harakatlanishi", "huquqiy faoliyat" kabi kategoriyalar orqali huquqning mohiyatini ochib beradi, huquqni jamiyat munosabatlarini tartibga soluvchi dinamik tizim sifatida namoyon etadi. Funksional yondashuv esa, huquqning amaldagi mohiyati va vazifalarini, uning harakatini ochib beradi.

4. Faoliyatli yondashuv huquqning harakatlanishi va o‘zgarish xususiyatlarini aks ettiradi. Huquqiy faoliyat huquqni harakatlantiradi, uning vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Huquqning harakatlanishi turli huquqiy faoliyat turlarini qamrab oladi. Funksional yondashuv huquqning mohiyatini uning funksiyalari orqali ochib beradi, bu funksiyalar huquqni "jonlantiradi" va uni real hayotga tatbiq etadi. Funksional huquq amaldagi huquqdir. Huquqning funksiyasi bu – huquqning ma’lum bir vositalar, uslublar va tartib-taomillar orqali predmetli belgilangan harakatlanishidir. Huquqning harakatlanishi huquq funksiyasi ro‘yobga chiqishi bilan yuz beradi, u ular orqali o‘z muntazam imkoniyatini namoyo etadi. Barcha huquq funksiyalarining to‘liq bajarilishi, haqiqatan, huquqning harakatlanishidir.

5. Huquqning harakatlanishi qonunning ishlashi, uning maqsadining amalga oshishi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning yuridik ko‘rinishidir. U huquqning tartibga soluvchi salohiyatini amalga oshirish, uning funksiyalarida ifodalanadi, makondan tashqarida, vaqt va shaxslar doirasida cheklangan bo‘lib, belgilangan huquqiy vositalar, shakl, usullar va tartib-taomillar orqali amalga

oshiriladi, uning natijasi esa, huquqtartibotning muayyan bir holati hamda oʻrnatilgan maqsadlarga erishishdan iborat.

6. «Huquq harakatlanishi» tushunchasi tizimli hodisa boʻlib, u ijtimoiy munosabatlarga taʼsir koʻrsatuvchi huquqiy voqelikning oʻzaro bogʻlangan elementlari va jarayonlarining majmuini oʻz ichiga oladi. U huquqiy taʼsir, shuningdek, faol maqsadga yoʻnaltirilgan xarakterga ega huquq ijodkorligi va huquqiy tartibga solishni qamrab oladi. Huquq harakatlanishining tizimlilik uning oʻzining koʻpqirraliligi bilan belgilanadi. Huquqning tizimlilik uning tizimli harakati uchun asos yaratadi, huquq harakatlanishining tizimli xarakterini taʼminlaydi, uning harakatlanishi mexanizmining mazmunini ifodalaydi,

7. Huquqning harakatlanishi – bu ijtimoiy munosabatlarga huquqning taʼsir koʻrsatishi, oʻzaro bogʻliq bosqichlar va jarayonlar majmuasidan iborat boʻlgan koʻp qirrali tizimli ijtimoiy hodisadir. Bu jarayon huquqning barcha tartibga soluvchi tizimi ishlashini oʻz ichiga oladi. Huquq harakatsiz "oʻlik" huquq boʻlib qoladi.

8. Huquqning harakatlanish tizimi huquqning maqsadlariga erishishni taʼminlaydigan, jamiyat munosabatlariga taʼsir koʻrsatuvchi vositalar, shakllar, usullar va tartib-taomillardan tashkil topgan, mantiqiy tarzda tashkil etilgan dinamik tuzilmani ifodalaydi. Huquq yaratish jarayoni huquqni institutsionalizatsiya qilishning universal mexanizmi hisoblanadi. «Huquq harakatlanishi» kategoriyasi kontekstida huquq yaratish jarayoni huquq normalarini shakllantirish boʻyicha yuridik faoliyatning natijasi sifatida qaralishi mumkin. Huquq yaratish huquq harakatlanishi tizimining muhim elementidir.

9. Huquq yaratish jarayonining sifati va samaradorligi huquqning harakatlanishi samaradorligini belgilaydi. Huquq yaratish jarayoni huquqning harakatlanishi mohiyatini tushunishdan xoli boʻlsa, u ishlaymaydigan normalarni qabul qilishga olib keladi. Huquq yaratish jarayoni huquq harakatlanishi tizimining organik elementidir. U nafaqat ijobiy huquqni shakllantiradi, balki qonunchilik normalarini amalga oshirish jarayonida huquq harakatlanishining ifodasi hisoblanadi.

10. Huquqiy taʼsir – bu huquqning jamiyat hayotiga, odamlarning ong va xatti-harakatlariga taʼsir koʻrsatish jarayoni. Bu faqat huquqning taʼsir qobiliyati emas, balki uning mazmun va talablarini hayotga tatbiq etishning natijasidir. Huquqning potensial imkoniyatlarining bunday amalga oshishi ijtimoiy munosabatlarga tartibga soluvchi sifatida taʼsir koʻrsatadi. Huquqiy taʼsirga barcha yuridik vositalar va instrumentlar yordamida erishiladi, yaʼni bu qonun namoyon boʻlishining keng spektridir. Huquqiy taʼsir huquqning tartibga soluvchi salohiyatini huquqiy haqiqatga aylantirish jarayonini ifodalaydi.

11. Huquqiy tartibga solish murakkab huquqiy jarayon boʻlib, u huquq harakatlanishi tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. U huquq harakatlanishining bir turi boʻlib, faoliyatli, normativ-yuridik va natijaviy jihatlarida namoyon boʻladi. Huquqiy tartibga solish huquqiy harakatlanishining eng koʻzga koʻringan qismi boʻlib, maqsadli yuridik taʼsir koʻrsatuvchi xarakterga ega. Huquqiy tartibga solish maqsadga yoʻnaltirilgan spetsifik faoliyat boʻlib, huquq harakatlanishini

ta'minlovchi turli vositalar, tip, metod, usul va tartib-taomillarni o'z ichiga oladi. Ya'ni u huquq harakatlanishi mexanizmining faol elementi, "motori" hisoblanadi.

12. Muallif «huquqiy tartibga solish» toifasini quyidagicha ta'riflaydi: bu jamiyat munosabatlarini tartibga solish uchun faoliyatli maqsadli ta'sir ko'rsatuvchi huquqiy hodisalar, shakllar, tartib-taomillar va vositalarning tashkil etilgan dinamik tizimidir. U obyektiv huquqning ta'sir ko'rsatish, yarakatlanish vositasi bo'lib, uning yordamida huquqiy talablar real huquqiy hayotda o'z mujassamini topadi. Bu huquqning vakolatli subyektlarining faol ta'siri yo'li bilan ijtimoiy munosabatlarni obyekt shartli, rasmiy va tizimli tartibga solishidir.

13. Huquq harakatlanishi mexanizmining eng muhim xususiyatlaridan biri – unda huquqiy vositalar mavjudligi bo'lib, ular orqali huquq amal qiladi. Huquqiy vositalar – bu huquqning harakatlanishi uchun zarur bo'lgan turli xil vositalar va jarayonlar majmuasidir. Huquqning amal qilishi vazifasiga ko'ra turli xil bo'lgan universal va o'ziga xos huquq vositalari harakatini ko'zda tutadi. Huquq vositalari tizimi – huquqning belgilangan maqsad va vazifalarining amalga oshishiga yordam beradigan, huquq harakatlanishini ta'minlovchi o'zaro funksional va struktur bog'langan huquq vositalari majmuidir.

14. Huquq harakatlanishi mexanizmi dinamik huquqiy vositalar, usullar va tartib-taomillar tizimini o'z ichiga oladi. Ushbu mexanizmning strukturasi huquqning potensialini amaldagi yuridik amallarga aylantirishga yordam beradigan vositalardan iborat. Huquqiy vositalar ijtimoiy munosabatlarni haqiqatda o'zgartirish vositasi bo'lgandagina, uni amalda xarakterlay oladi.

15. Yuridik faoliyat – bu huquq normalarida belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan huquq subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar, operatsiyalar, usullar va tartib-taomillar tizimidir. U huquqning tartibga solish potensialini amalga oshirish qobiliyati va imkoniyatining oshishiga imkoniyat beradi, ya'ni huquq harakatlanishini ta'minlaydi. Yuridik faoliyat huquqiy faollikning alohida ko'rinishi bo'lib, uning maqsadli ifodasidir.

16. Yuridik faoliyat huquqning harakatidagi konsentratsiyalangan namoyon bo'lishidir. U huquqning mavjudlik usuli va harakat shakli hisoblanadi. Yuridik faoliyatsiz, huquqiy vosita va tartib taomillarni amalda qo'llamasdan huquqning harakatlanishi bo'lmaydi. Yuridik faoliyat huquq harakatlanishi, uning ishlashi, ijtimoiy munosabatlarga doimiy ta'sirini ta'minlaydi.

17. Huquq harakatlanishi mexanizmining asosiy maqsadi – huquqiy tartibotga erishishdir. Huquqiy tartibot – bu jamiyat munosabatlarining tartibga solingan holati bo'lib, u huquqning amalga oshirilgan holati va uning ta'sir natijasidir. Huquqiy tartibot – bu amalga oshirilgan huquq, uning ta'sir natijasi va huquq qo'ygan maqsadlarga erishish yo'lidagi harakatlardir. Huquqiy tartibot huquqning ijtimoiy munosabatlarga samarali ta'siri, huquq harakatlanishining natijasini aks ettiruvchi huquqiy voqelikning muayyan holatini ifoda etadi. Huquqiy tartibot – huquqning ro'yobga chiqishi, hayotga tatbiq qilinishi, uning harakatlanishi natijasidir. Huquqiy tartibot – huquqning harakatlanishi evaziga erishiladigan va qonun chiqaruvchi intiladigan huquqiy maqsad va natijadir.

18. Huquq harakatlanishining samaradorligi uning natijaviyligida, ya'ni huquqning maqsad va vazifalariga muvofiqligining darajasida namoyon bo'ladi. Tahlil asosida quyidagi tushuncha taklif etilgan: huquq harakatlanishi mexanizmining samaradorligi – bu huquqning jamiyat munosabatlariga ta'siri darajasini baholash xususiyati, ya'ni huquq maqsadlariga erishish va jamiyatda huquqiy tartibotni o'rnatish darajasini aniqlovchi xususiyatdir.

19. Huquq harakatlanishi nazariyasining metodologik tamoyillari quyidagi xususiyatlarini asoslashga imkon beradi:

- Huquq harakatlanishi «huquqiy munosabat» toifasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, jamiyat munosabatlariga huquqning faol ta'sirini aks ettiradi. Huquqiy munosabat haqiqiy ta'sir etuvchi huquq mavjud bo'lgandagina mumkin.

- Huquq harakatlanishi huquqiy faoliyat va uning natijalari orqali namoyon bo'ladi.

20. Huquq harakatlanishi huquqning tartibga soluvchi quvvati va energiyasini namoyon etib, qonuniyligni o'z ichiga oladi. Qonuniylik huquq harakatlanishining to'liq amalga oshirishini va uning natijadorligini ta'minlashda muhim shartdir.

21. Huquqning harakatlanishi uning yuridik kuchi namoyon bo'ladigan barcha shakllarining yig'indisidir. U huquqning dinamikasini, uning ijtimoiy munosabatlarga ta'sirini aks ettiradi. Huquq harakatlanishi jarayonida huquqiy imkoniyatlar huquqiy voqelikka aylanadi.

22. “Huquqning harakatlanishi” tushunchasi uning tasnifining mohiyatini o'zida jamlagan huquqning tartibga solish energiyasi, harakati va ta'siri namoyon bo'lishini anglatadi. Huquqning harakatlanishi huquq ichki tartibga soluvchi imkoniyatidan iborat bo'lgan huquqning ichki harakatlantiruvchi kuchini ifodalaydi. Huquq harakatlanishi kategoriyasining algoritmi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Huquq subyektini huquq doirasiga kiritish va uning huquqiy ehtiyojlarini qondirish orqali huquqning maqsadlariga erishish.

- Huquq harakatlanishini ta'minlash uchun huquqiy vositalar va mexanizmlarni qo'llash.

- Huquqning harakatlanishi natijasida huquqiy ong, huquqiy xatti-harakat va huquqiy faoliyatining o'zgarishi.

- Huquqning to'g'ri harakatlanishi natijasida subyektlarning manfaatlari qondiriladi va huquq maqsadlari amalga oshiriladi.

23. Huquq ta'siri samaradorligi – bu uning har qanday harakati va natijadorligi emas, balki huquq maqsadlari belgilagan natijaga eng samarali yo'l bilan erishishdir.

24. Huquqni amalga oshirishni nazorat qilishning natijaviyligi – bu huquqning ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlariga erishish darajasi bo'lib, u huquq harakatlanishi natijalarini o'rganish jarayonida maxsus ko'rsatkichlar va indikatorlar orqali aniqlanadi.

II. Qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflar

1. Amaldagi qonunchilik va huquqni qo'llash faoliyatini kompleks monitoring qilish tizimini joriy etish taklif qilindi. Unda huquq harakatlanishining natijaviyligi mamlakat rivojlanishining iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa ko'rsatkichlari qatorida muhim indikator bo'ladi. SOVAZ (qonunchilik hujjatlarining ta'sirini baholash tizimi)ni takomillashtirish va bu tizimni amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi maxsus markaz tashkil etish tavsiya etildi.

2. Davlat nazorati tizimini takomillashtirish, jamoatchilik nazoratini yagona va kompleks tartibga solish, davlatning nazorat-taftish organlari faoliyatida yagona yondashuvni ta'minlash maqsadida «Davlat nazorati to'g'risida» gi qonunni ishlab chiqish va qabul qilish zarurligi asoslantirildi.

3. O'zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonunining 29-moddasiga quyidagi mazmundagi normani kiritish taklif qilindi: fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlariga qonun loyihalari hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga jamoatchilik korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish huquqini berish.

4. Fuqarolik jamiyati institutlarining huquqni muhofaza qilish organlarining holati va natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarga keng va ishonchli kirishini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasining «Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi Qonunining 5-moddasiga quyidagi mazmundagi qo'shimcha kiritish taklif qilindi:

«qonuniylik holatini, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati natijalarini, ko'rsatkichlarni, tamoyillarni va davlatning huquqni muhofaza qilish siyosatining rivojlanish dinamikasini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlar».

5. Qonunchilikda «huquqni muhofaza qiluvchi organ» tushunchasini aniq belgilash va uning mazmunini aniqlash bo'yicha taklif asoslantirildi. Bu ushbu atamani qo'llashda aniqlik kiritish va mamlakat huquqni muhofaza qiluvchi organlari tizimining tuzilmasini aniqlashga yordam beradi.

6. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarda davlat xizmati tashkil etilishi va uning tartibini yagona yondashuv asosida muvofiqlashtirish, shuningdek, tegishli statut qonunlaridagi ixtiloflarni bartaraf etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning davlat xizmati to'g'risida»gi Qonuni qoidalarini hisobga olgan holda, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning huquqiy maqomini qonunchilikda aniq belgilash zarurligi taklif qilindi.

7. O'zbekiston Respublikasining «Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risida»gi Kodeksi 128-moddasi matnidan, fuqarolarning sudga murojaat qilish huquqini amalga oshirish imkoniyatini cheklovchi talab sifatida, ariza yoki shikoyatda qonunchilikka havola berilishi shartligi talabini chiqarib tashlash taklif etildi. Faqatgina da'vogarning huquqlari va erkinliklari buzilishini bartaraf etish yoki tiklash haqida qaror qabul qilish talabi saqlab qolinishi taklif qilindi.

8. O‘zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida»gi Qonuni 53-moddasining birinchi qismiga quyidagi mazmundagi qo‘shimcha kiritish taklif etildi: «Normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosini monitoring qilish va nazorat qilish – bu normativ-huquqiy hujjatlarning amalda ijro etilishi sifati va to‘liqligini kuzatish, tahlil qilish va baholashga qaratilgan chora-tadbirlar va tartib-taomillar tizimidir».

9. Fuqarolar yig‘iniga oqsaqol hisobotini har chorakda tinglash vakolatini amalga oshirishni ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi Qonuni 11-moddasini quyidagi qoida bilan to‘ldirish taklif qilindi: «Fuqarolar yig‘ini oqsaqolga ishonchsizlik votumi kiritish va uni ko‘rib chiqish tashabbusining tartibini belgilaydigan normani joriy etish».

10. Konstitutsiyaviy qonunchilikning to‘liq amal qilishi uchun O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida»gi Konstitutsiyaviy Qonuniga quyidagi normalarni kiritish taklif etildi:

- Viloyat xalq deputatlari kengashlarining Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqini ta‘minlash mexanizmini joriy etish;
- Konstitutsiyaviy sudni mamlakat Konstitutsiyasiga siyosiy partiyalar faoliyati muvofiqligini ko‘rib chiqish va ularni Konstitutsiyaga zid deb topish vakolati bilan ta‘minlash.

11. O‘zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida»gi Qonuni 38-moddasining birinchi qismiga quyidagi mazmundagi qo‘shimcha kiritish taklif etildi: «Belgilangan tartibda e‘lon qilinmagan normativ-huquqiy hujjat haqiqiy hisoblanmaydi va yuridik kuchga ega emas».

12. Huquq harakatlanishini baholash tizimini takomillashtirish uchun quyidagi vazifalarni qonunchilikda mustahkamlash bo‘yicha asoslangan:

- maqsadlarga erishish darajasi, xavf-xatarlar va oqibatlar kabi mezonlarni hisobga oladigan ko‘rsatkichlar va indikatorlarni belgilash;
- huquq harakatlanishining samaradorligini baholash metodikalari hamda tartib-taomillarini ishlab chiqish va joriy qilish;
- huquqning holati, natijalari va muammolari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni yig‘ish, umumlashtirish va tahlil qilish;
- huquq harakatlanishi samaradorligining darajasini aniqlash.

13. O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonunining 9-moddasini quyidagi mazmundagi qoidalar bilan to‘ldirish taklif qilindi: «Davlat umumiy o‘rta ta‘limni bepul olish huquqini kafolatlaydi. Umumiy o‘rta ta‘lim majburiydir. Maktab ishi, ta‘lim va tarbiya davlat nazorati ostida bo‘ladi».

14. O‘zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonunining 18-moddasini quyidagi qoida bilan to‘ldirish taklif qilindi: «Davlat tadbirkorlik faoliyati erkinligini, halol raqobatni, tadbirkorlik mulkining huquqiy himoyasini kafolatlaydi, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik va investitsiya muhitini ta‘minlaydi. Tadbirkorning huquqiy holatini yaxshilaydigan qonun orqaga ega, uning huquqiy holatini yomonlashtiradigan qonun esa, orqaga qaytish kuchiga kuchga ega emas».

15. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘RQ-637-sonli Qonunining 9-moddasiga o‘zgartirish kiritish taklif qilindi. Unga ko‘ra, nodavlat ta’lim tashkilotlarining faoliyati davlat ta’lim standartlariga muvofiq bo‘lishi majburiy ekani belgilanadi.

16. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunining 43-moddasiga o‘zgartirish kiritish taklif qilindi. Unda davlat hokimiyati vakolatli organlari tomonidan nodavlat ta’lim muassasalaridagi ta’lim sifatini nazorat qilish va monitoring qilish choralari haqida Prezident huzuridagi tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini himoya qilish bo‘yicha vakilni xabardor qilish tartibi belgilanadi.

17. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunining 60-moddasiga ta’lim sifatini nazorat qilishni tartibga solishga qaratilgan o‘zgartirish kiritish taklif qilindi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЮРИДИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**АКАДЕМИЯ МИНИСТЕРСТВА ВНУТРЕННИХ ДЕЛ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

МИРЗАЕВ ШУХРАТ ШАВКАТОВИЧ

ДЕЙСТВИЕ ПРАВА: ПРОБЛЕМЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ

12.00.01 – Теория и история государства и права.
История правовых учений

АВТОРЕФЕРАТ
докторской (DSc) диссертации по юридическим наукам

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2024.1.DSc/Yu274.

Диссертация выполнена в Академии МВД Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме) на веб-странице Научного совета (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziynet.uz).

Научный консультант:	Адилкариев Ходжимурот Тухтамуратович доктор юридических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна доктор юридических наук, профессор Умарова Карлыгаш Умаровна доктор юридических наук, профессор Гафуров Аскар Бойисович доктор юридических наук, доцент
Ведущая организация:	Институт парламентских исследований при Законодательной палате Олий Мажлиса Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится 13 марта 2025 года в 10:00 на заседании Научного совета DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном юридическом университете (Адрес: 100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, 35. Тел.: (99871) 233-66-36; факс: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного юридического университета (зарегистрирована № 1359). (Адрес: 100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, 35. Тел.: (99871) 233-66-36).

Автореферат диссертации разослан 27 февраля 2025 г.

(протокол реестра рассылки № 18 от 27 февраля 2025 г.)

Р.Р.Хакимов

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

Ф.Б.Махмудов

Научный секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии (PhD), доцент

И.Р. Беков

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации)

Актуальность и востребованность темы диссертации. Вопрос эффективного движения права в мире приобретает все большее важное значение. Целью 16 «Целей ООН в области устойчивого развития до 2030 года» определена задача о том, чтобы построить мирные и инклюзивные общества, обеспечить приоритетность права для всех и создать эффективные, подотчетные и инклюзивные институты на всех уровнях¹. По данным Всемирного банка, более 5,1 миллиарда человек в мире испытывают серьезные проблемы с использованием средств правовой защиты². Согласно Всемирному отчету «Индекс верховенства права 2024», уровень верховенства права имеет тенденцию к снижению в 78 из 140 стран мира³. Поэтому для многих стран приоритетность права остается одним из важнейших показателей уровня действия права, реального применения его принципов и требований в жизни. Благодаря этому важному институту решаются многие вопросы общественной жизни: защищаются права и свободы человека, организуется управление обществом и государством, осуществляется правосудие.

В мире все больше внимания уделяется научным исследованиям, направленным на повышение эффективности действия права и выявление путей реализации его регулятивного потенциала. В частности, особое внимание уделяется в качестве направления исследований таким вопросам, имеющим научно-практическое значение, как механизмы действия права в современных правовых системах, оценка социального воздействия права, повышение эффективности правового регулирования в условиях глобализации, повышение качества содержания права, совершенствование правоприменительной деятельности, изучение результатов правоприменения, минимизация недостатков и разногласий в праве, обеспечение соответствия права потребностям и задачам социального развития, его обновление и адаптация к реальной действительности.

В нашей стране проводятся системные реформы, направленные на повышение действенности, эффективного функционирования и качества права. В рамках Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы внедрены новые механизмы обеспечения исполнения принятых нормативно-правовых актов. Радикально пересмотрены стратегия правовой политики, подходы к организации нормотворчества и правоприменительной деятельности. В частности, были достигнуты важные результаты по

¹ Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development: Resolution adopted by the General Assembly on 25 September 2015 [70/1] // United Nations. General Assembly. – New York, 2015. – 35 p.

² Global Study on Legal Aid. Global Report // United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC), United Nations Development Programme (UNDP). – Vienna: United Nations, 2023. – 149 p. // <https://www.unodc.org/documents>

³ WJP Rule of Law Index 2024 // World Justice Project. – Washington, D.C., 2024. – 238 p // <https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index>

сокращению количества подзаконных актов и обеспечению прямого действия законов. В 2022-2023 годах отменено более 500 ведомственных нормативно-правовых актов, налажена практика прямого применения законов. В основном законе нашей страны впервые закреплено положение о том, что “Конституция Республики Узбекистан имеет высшую юридическую силу, прямое действие и образует основу единого правового пространства на всей территории страны” (ст. 15). Данное конституционное нововведение указывает на актуальность и востребованность данного исследования. Кроме того, исследование ставит перед собой цель, определенную в Стратегии “Узбекистан-2030” – усиление роли прямого действия законов и содействие модернизации системы государственного права.

Данное исследование в определенной степени послужит комплексной реализации задач, вытекающих из сущности положений новой редакции Конституции, Конституционного закона «О Конституционном суде Республики Узбекистан» (2021), Законов «О нормативно-правовых актах» (2021), «Об образовании» (2020), «О гарантиях свободы предпринимательской деятельности» (2012), а также Указов Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № УП–158 «О Стратегии «Узбекистан–2030», от 19 мая 2020 года № УП-5997 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности органов и учреждений юстиции в реализации государственной правовой политики» и других нормативно-правовых актов по данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий в республике. Настоящая диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологии Республики I. «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации.

Системные исследования по проблемам теории и практики действия права осуществляются в ведущих научно-исследовательских учреждениях развитых стран. В них глубоко исследуются вопросы совершенствования механизмов действия права, повышения его эффективности и усиления его роли в жизни общества. В исследованиях, проведенных в школе права Гарвардского университета (Harvard Law School), изучались механизмы действия права как средства регулирования человеческих взаимоотношений и моделирования поведения. В исследовании обосновано, что право-это не просто система норм, а сложная система, включающая процесс их действия и социальные последствия. В университете Нагоя (Nagoya University) исследованы вопросы эффективности механизмов действия права в современных правовых системах. По результатам исследования определены институциональные, организационные и правовые условия, необходимые для эффективного действия права. В Геттингенском университете (Georg-August-Universität Göttingen) глубоко изучены факторы социальной обусловленности

и правовой эффективности реализации права. В исследовании систематически анализированы социальные, экономические и политические факторы, влияющие на действие права. Сегодня даже в таких авторитетных научных центрах, как Нью-Йоркский университет (New York University), Северо-Западный университет (Northwestern University, Канада), Цюрихский университет (Zurich University) проводятся важные исследования по вопросам механизмов действия права, факторов повышения его эффективности, совершенствования правоприменительной практики. В нашей стране в Академии МВД и Ташкентском государственном юридическом университете проводятся системные исследования по проблемам теории и практики действия права, совершенствованию механизмов эффективного действия правовых норм. Результаты этих исследований служат совершенствованию национального законодательства и развитию правоприменительной практики¹.

